

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
“Carding” turidagi jinoyatlarni fosh etish simulyatsion elektron platformasini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - ichki ishlar organlari xodimlarining hamda Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida “tezkor-qidiruv faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olayotgan kursantlarning respublikamizda sodir etilayotgan fuqarolarning bank plastik kartalaridan firibgarlik va o‘g‘rilik yo‘li pul mablag‘larini o‘zlashtirish jinoyatlarini fosh etishga oid amaliy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning interaktiv, simulyatsion elektron platformasi yaratiladi; - amaliyot xodimlari, kursant va tinglovchilarning karding turidagi jinoyatlarni fosh etishni o‘rgatishning mutlaqo yangi usuli joriy etiladi; - simulyatsion-elektron platforma karding turidagi jinoyatlarni sodir etishning yangi mexanizmlarini o‘rgatish bo‘yicha doimiy takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari respublika banklarida yoki Ichki ishlar vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Ichki ishlar vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ichki ishlar vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.